

TALABALAR TA’LIM SIFATINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING TA’SIRI

Guliston Davlat Universiteti
Psixologiya yo‘nalishi magistranti
Miraxmatova Muqaddam Ixomjon qizi
muqaddammiraxmatova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19452827>

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy davrda tahsil olayotgan talabalarning ta’lim sifatini oshirishda katta ahamiyatga ega bo‘lgan va talabalarning ta’lim tizimida ko‘plab yutuqlarga erishishiga sababchi bo‘lgan, shu bilan bir qatorda bilim, ko‘nikma va malakalarini yanada rivojlantirishga katta hissa qo‘shayotgan raqamli bilim va zamonaviy texnologiyalarning xususiyatlari va imkoniyatlari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, interfaol metodlar va innovatsion ta’lim shakllaridan foydalanish haqida ma’lumotlar ham berilgan.

Kalit so‘z: Axborot kommunikatsiya, zamonaviy texnologiya, axborot oqimi, kompyuterlashtirish, interaktiv vositalar, smart doska, raqamli axborot vositalari, o‘smirlar, texnika taraqqiyoti, interfaol metodlar.

Аннотация: В данной статье анализируется значение современных технологий для дальнейшего повышения уровня образования современных студентов. Кроме того, они создают широкий спектр возможностей для развития мировоззрения, мышления, навыков логического мышления и приобретения знаний. В статье также рассматривается опыт использования информационно-коммуникационных технологий, интерактивных методов и инновационных форм образования для повышения качества обучения.

Ключевые слова: Информационно-коммуникационные технологии, современные технологии, информационный поток, компьютеризация, интерактивные инструменты, интерактивная доска, цифровые медиа, подростки, технический прогресс, интерактивные методы.

Abstract: This article analyzes the importance of modern technologies for further developing the level of education of today's students. In addition, a wide range of opportunities have been created for the development of students' worldview, thinking, logical thinking skills and their acquisition of knowledge. This article also studies the experiences of using information and communication technologies, interactive methods and innovative forms of education to improve the quality of education.

Keywords: Information and communication, modern technology, information flow, computerization, interactive tools, smart board, digital media, adolescents, technical progress, interactive methods.

XXI asrda axborot texnologiyalari jamiyatning barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda. Xususan, ta’lim sohasida yuz berayotgan raqamli transformatsiya o‘qitish mazmuni va shaklini tubdan o‘zgartirmoqda. Yangi texnologiyalar orqali ta’lim jarayonining interaktivligi, shaxsga yo‘naltirilganligi va moslashuvchanligi ortib bormoqda. Bu esa zamonaviy o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish, uni faol ishtirokchiga aylantirish va global bilimlar makoniga integratsiyalashga imkon yaratmoqda.[1]

Bugungi kun o‘qituvchisiga barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdek mas’uliyatli vazifa yuklangan bo‘lib, ta’lim mazmunini takomillashtirishga qaratilgan vazifalarni

belgilab olish, zamon bilan hamnafas bo‘lib, ta’limning zamonaviy texnologiyalarini joriy etgan holda o‘quvchilarda o‘z faniga qiziqish uyg‘otishlari, xurmat-ehtirom tuyg‘ularini shakllantirib borishlari talab etiladi. Ta’limda ijobiy natijalarga erishish, eng avvalo, yosh avlodga ilmiy bilim asoslarini puxta o‘rgatish, ularda dunyoqarash hamda tafakkur ko‘lamini kengaytirish, ma’naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirish borasidagi ta’limiy-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish bilan belgilanadi. Bu borada ta’lim-tarbiya jarayoniga ko‘plab o‘zgartirishlar kiritilmoqda, yangicha yondoshuvlar tadbiiq etilmoqda. O‘quvchilarning fanlarga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularning aqliy va ijodiy tafakkurini, intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, fanlararo bog‘liqlikni ta’minlash, bugungi pedagogikaning muhim vazifalaridan.[5]

Jamiyatning zamonaviy rivojlanish davri inson faoliyatining barcha sohalariga kirib boradigan, jamiyatda axborot oqimining tarqalishini ta’minlaydigan, global axborot makonini shakllantiradigan kompyuter texnologiyalarining kuchli ta’siri bilan tavsiflanadi. Ushbu jarayonlarning ajralmas va muhim qismi ta’limni kompyuterlashtirishdir. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimni isloh qilishning ustuvor yo’nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tarish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida bir qator amaliy tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalarini va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora - tadbirlari to’g’risida”gi PQ-3151-sonli qarorida oliy ta’limda kadrlar tayyorlash jarayoniga e’tiborni kuchaytirish, ilmiy izlanishlar iqtisodiyot sohalarining real ehtiyojlaridan kelib chiqib amalga oshirilishi lozimligi ta’kidlab o‘tilgan. Jamiyat taraqqiyotini jadallashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri – bu samarali innovatsion siyosatni amalga oshirish, ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlariga asoslangan yangi, ilg‘or texnologiyalar, va boshqarish yangi shakllari hamda yirik ixtirolar natijalarini joriy qilishdan iboratdir.[2]

Zamonaviy texnologiyalar deganda, ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan, o‘qitish sifatini oshirishga qaratilgan va raqamli axborot vositalariga asoslangan texnik va dasturiy vositalar tushuniladi. Bunday texnologiyalar quyidagi asosiy guruhlariga ajratiladi:

1.Smart-texnologiyalar – bu intellektual tizimlar bo‘lib, ular o‘quvchilarning ehtiyojlariga moslashadi. Masalan, smart doskalar, aqlli sinflar, mobil ilovalar (Kahoot, Photomath) yordamida darslar interaktiv va o‘zaro aloqadorlikka asoslanadi. Aqlli sinflarda har bir o‘quvchi o‘z tempida mustaqil ishlash imkoniga ega bo‘ladi.

2.Interaktiv vositalar – bu ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi faol aloqani ta’minlovchi vositalardir. Interaktiv doskalar, tajriba simulyatorlari, elektron testlar o‘quvchini faollikka chorlaydi. Ular bilimni chuqurroq o‘zlashtirish va tahlil qilishga yordam beradi.

3. Onlayn platformalar – bu ta’limning masofaviy va aralash (blended learning) shakllarida keng qo‘llaniladi. Moodle, Google Classroom, Zoom, Edmodo, Coursera kabi platformalar o‘qituvchi, o‘quvchi va ota-ona o‘rtasidagi muloqotni kuchaytiradi. Shuningdek, ular topshiriqlarni tarqatish, baholash va tahlil qilishda qulaylik yaratadi.

4.Bulutli texnologiyalar – o‘quv materiallarini saqlash, almashish va tahrirlash imkonini beruvchi xizmatlardir. Google Drive, OneDrive kabi tizimlar hammualliflikda ishlashni soddalashtiradi. O‘quvchilarning birgalikda loyihalar bajarishi va guruhli ta’lim tashkil etish uchun ayniqsa foydalidir. [3]

1994 yildan beri butun dunyo bo‘ylab ilmiy muassasalar Internetga qaramlik muammosi ta’lim sohasida o‘rganila boshlagan. Bugungi kunda bu “moda mavzular” ilmiy

psixologiya bo‘yicha. Bu muammoga ko‘plab tadqiqotlar bag‘ishlangan. Internetga qaramlikning ta’sirini aniqlash bo‘yicha shaxsning psixologik, ijtimoiy, madaniy va axloqiy fazilatlarini, o‘quvchilarni shakllantirish ilmiy tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratilmoqda.[4]

Xulosa qilib aytganda, talabalarda ta’lim sifatini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ularning qo‘llanilishi o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini mustahkamlash, mustaqil fikrlash, ijodkorlik va axborot bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, bunday texnologiyalar o‘qituvchi faoliyatining samaradorligini oshirish, dars jarayonini interfaol va innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yusupov Erkin Xurramovich¹, Madaminova Fazilat G‘anisher qizi², Quzratov Shamsullo Narzulloyevich³. “YOSH MATEMATIKLARNING YANGI TEOREMALARI” RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI, 23-24-MAY, 2025
2. Reymbayeva Roza Saparbayevna O‘zbekistan davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali assistenti, B.F.N.(PhD) Yernazarova Raya Allanazarovna O‘zbekistan davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali assistenti
Kaypnazarov Talgat Shamshetovich O‘zbekistan davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali assistenti *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)*ISSN:2181-1784 *www.oriens.uz* SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.73(10), *October, 2023*
3. Yusupov Erkin Xurramovich¹, Madaminova Fazilat G‘anisher qizi², Quzratov Shamsullo Narzulloyevich³. “YOSH MATEMATIKLARNING YANGI TEOREMALARI” RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI, 23-24-MAY, 2025
4. Miraxmatova Muqaddam Iloxjon qizi¹ PhD - Guliston Davlat Universiteti; 2Psixologiya yo‘nalishi magistranti . REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL FORUM “STRATEGIES FOR THE FORMATION OF IMMUNITY TO OFFENSES IN SUBJECTS OF THE CONTINUOUS EDUCATIONAL PROCESS”, NOVEMBER 14, 2025
5. Uktamova Mohinur BuxDu Pedagogika instituti Ta'lim -tarbiya nazariyasi va metodikasi mutaxassisligi (boshlang'ich ta'lim) 7-3BT-21 guruhning 1-bosqich magistranti.
6. Mirzayev Djamshid Turdaliyevich, Tojiboyeva Ulbo‘sin Hasan qizi. Voyaga yetmaganlar o‘rtasidagi huquqbuzarliklarning profilaktikasi. REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL FORUM “STRATEGIES FOR THE FORMATION OF IMMUNITY TO OFFENSES IN SUBJECTS OF THE CONTINUOUS EDUCATIONAL PROCESS”, NOVEMBER 14, 2025 **ssue 1, January 2026**